
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

HARBIY TA’LIM FAKULTETI TALABALARIDA TOLERANTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Qarshiev Azamat Raxmonovich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikl o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy ta’lim fakulteti talabalarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, tolerantlik ko‘nikmalarining nazariy-metodik asoslari, ularni rivojlantirishda ta’lim muassasalari, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy-psixologik muhit va talabalarning shaxsiy faoliyati kabi omillarning o‘rni tahlil qilingan. Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti, turli millat, din va madaniyat vakillarining o‘zaro muloqoti tolerantlik tamoyillariga asoslangan holda shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois oliy ta’lim jarayonida talabalarda bag‘rikenglik, hurmat, hamkorlik, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish hamda nizoli vaziyatlarni ijobiy hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Tolerantlik, muloqat turlari, muloqat madaniyati, romantik tuyg‘ular, jamiyat, pedagogik mahorat, pedagogik tolerantlik, ijobiy-ruhiy iqlim.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития толерантности у студентов факультета военного образования. Также проанализированы теоретико-методологические основы толерантных навыков, роль таких факторов, как образовательные учреждения, педагогические технологии, социально-психологическая среда и личностная деятельность студентов в их развитии.гогические технологии, социально-психологическая среда и личностная деятельность студентов в их развитии. В современную эпоху глобализации развитие общества неразрывно связано с формированием диалога между представителями разных национальностей, религий и культур на основе принципов толерантности. Поэтому важным фактором является формирование у студентов навыков толерантности, уважения, сотрудничества, принятия разнообразия мнений и позитивного разрешения конфликтных ситуаций в процессе высшего образования.

Ключевые слова: толерантность, виды общения, культура общения, романтические чувства, общество, педагогическое мастерство, педагогическая толерантность, позитивно-психологический климат.

Annotation. The article discusses the issues of developing tolerance among students of the Faculty of Military Education. The theoretical and methodological foundations of tolerant skills, the role of such factors as educational institutions, pedagogical technologies, the socio-psychological environment and personal activity of students in their development are also analyzed. educational technologies, socio-psychological environment and personal activity of students in their

development. In the modern era of globalization, the development of society is inextricably linked with the formation of a dialogue between representatives of different nationalities, religions and cultures based on the principles of tolerance. Therefore, an important factor is the formation of students' skills of tolerance, respect, cooperation, acceptance of a variety of opinions and positive conflict resolution in the higher education process.

Keywords: Tolerance, types of communication, communication culture, romantic feelings, society, pedagogical skills, pedagogical tolerance, positive psychological climate.

KIRISH

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqimiz o‘zining azaldan mavjud bo‘lgan yaratuvchanlik, bunyodkorlik, barqarorlik bag‘rikenglik va tolerantlik kabi qadriyatlarini qayta tikladi. O‘zbek xalqi o‘zining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida o‘zida ajoyib fazilatlarni rivojlantirib kelayotgan xalqlardan biridir. Uning bu fazilatlari mustaqillik yillarida yanada ham yorqin nomoyon bo‘ldi [1].

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

O‘zbeklar azal-azaldan o‘zida tolerantlik tuyg‘ulariga boy millat hisoblanadi. Ota bobolarimiz necha asrlar moboynida shu bepayon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, tarix va hayot qadrini tabiatning o‘zi bizni-butun O‘rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da’vat etadi.

“Tolerantlik” lotincha “tolerantia” – “sabr-toqat” degani bo‘lib, bag‘rikenglik, o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr mulohazalari, g‘oya va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish. Tolerantlikning asosiy maqsadi o‘quvchi yoshlarga bag‘rikenglik, o‘zga din, millat vakillariga hurmat, ularning qadriyatlarini e’zozlash, milliy boyliklariga hurmat bilan qarash, toqatlilik, bardoshlilik, do‘stlik, birodarlik, vatanparvarlik, saxiylik, sadoqatlilik, o‘zgalarga hurmat nazari bilan qarash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat [2].

Yoshlarda tolerantlik sifatlarini shakllantirishda Sharq mutafakkirlari merosining o‘rni kattadir. “…O‘qituvchi – deydi Al Forobiy, - aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur”. U o‘z fikrini davom ettirib: - “O‘qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshaydi, shu sababli o‘qituvchi eshitgan va ko‘rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroylik nutqga ega bo‘lishi, o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalab berishni bilmog‘i lozim. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lmog‘i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi”, – deb ta’kidlaydi.[3]

Barcha kasblar orasida o‘qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me’mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g‘oyaviy

siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiv hayot tafakkur taraqqiyoti va tolerantlik sifatlarini, qonuniyatlarini o‘rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayy orlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlami hal etadi [4]

Ana shu mas’uliyat o‘qituvchidan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun doimo o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko‘nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g‘amxo‘rlik qilish, zarur shart- sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy metodik hamda texnik yordam ko‘rsatish, o‘qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko‘maklashish lozim [2].

Tolerantlik o‘zgalarning xatti-xarakati va fikr mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga toqatli, chidamli va kengfe’llik bilan munosabatda bo‘lishni anglatadi. O‘zgalarning fikriga, mulohazalariga va e’tiqodlariga tabiiy ravishda bo‘ysunishni anglatmaydi. Ijtimoiy ishga oid ensiklopedik lug‘atda tolerantlikni boshqalarning madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarini tan olish, qadrlash va hurmat qilish, ularga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish sifatida ta’riflanadi.

Tolerantlik bugungi kunda insonlar hayotini tartibga soluvchi kuchli vosita sifatida davlat tuzilishi, ijtimoiy tizimda va inson huquqlarining rivojlanishida etakchi omil bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalarda aynan “Axborot soati” darslarida tolerantlikni shakllantirish o‘ta muhim psixologik jarayon sanaladi. Bu jarayonni tashkil etishda esa o‘quv vositalari va o‘qituvchining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Zero, tolerantlik tushunchasi o‘z tarkibiga chidam, bardosh, o‘zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni ham qamrab olgan.

O‘zbek tadqiqotchilaridan M.Xajievaning fikricha, tolerantlik turli ijtimoiy va e’tiqodiy tafovutlarga ega insonlar va millatlarni bir biriga bog‘lab, ular o‘rtasida do‘stona munosabatni va muhitni yaratish orqali ijtimoiy rivojlanishni ta’minlaydi[5].

Tadqiqotchi Z.Husniddinov esa, bu tushunchaga quyidagicha ta’rif beradi: “tolerantlik umumiy ma’noda biror narsa, hodisani, o‘zgacha fikr va qarashni, o‘z shaxsiy tushunchalaridan qat’iy nazar, imkon qadar chidam va toqat bilan qabul qilishni anglatadi” [3].

Zamonaviy mahalliy ilm-fanda bag‘rikenglik hodisasi juda faol o‘rganilmoqda. Olimlar etnik va ijtimoiy psixologiyani nazariy va amaliy tadqiqotlarini olib boradilar, ular millatlararo munosabatlar psixologiyasining jihatlari va bu munosabatlarda shaxsning roliga tegishlidir.

Ushbu talqinda bag‘rikenglik boshqalarning huquqlarini tan olish, boshqalarni teng huquqli deb qabul qilish, tushunish va rahm-shafqatni talab qilish,

boshqa xalqlar va madaniyatlar vakillarini qanday bo‘lsa, shunday qabul qilish va ular bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish istagini anglatadi. U o‘zining amaliy ifodasini chidamlilik, o‘zini o‘zi boshqarish, uzoq vaqt davomida salbiy ta’sirlarga dosh bera olish qobiliyatida ifodalanadi.

A.V.Petrovskiy “tolerantlik” tushunchasini adaptiv imkoniyatlarni kamaytirmasdan uzoq vaqt davomida noqulay ta’sirlarga dosh bera olish qobiliyati deb ta’riflagan. Umumiy ma’noda bag‘rikenglik har qanday ishda, ishda qat’iyat, qat’iyat va chidamlilik va chidash qobiliyati sifatida tavsiflanadi [2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixologiyada “tolerantlik” deganda uning ta’siriga nisbatan sezgirlikning pasayishi, tahlikali vaziyatga milliy javob berish chegarasining oshishi natijasida har qanday noqulay omilga javob yo‘qligi yoki zaiflashishi tushuniladi.

Bag‘rikenglik - munosabatlardagi tinchlik uchun o‘z manfaatlarini buzishga tayyorlik. Kuchli tomonlarning manfaatlari zaiflarning manfaatlariga to‘g‘ri kelmaganligi sababli, manfaatlarning buzilishini har xil yo‘llar bilan tushunish kerak. Tolerantlik - bu shaxsiyatning sifati va ijtimoiy hayot hodisasi madaniyatning eng yuqori, asosiy qadriyatlariga tegishli.

Bizning fikrimizcha bag‘rikenglikning tegishli mezonlarini belgilash maqsadga muvofiqdir: turli xil xalqlar vakillari o‘rtasidagi haqiqiy tenglik (jinsi, irqi, millati, dini yoki boshqa biron bir guruhga mansubligidan qat’i nazar, barcha odamlar uchun ijtimoiy imtiyozlarga teng kirish); jamiyatning barcha a’zolarining boshqa ijtimoiy, madaniy va boshqa guruhlarga nisbatan o‘zaro hurmati, xayrixohligi va bag‘rikengligi; jamiyatning barcha a’zolarining siyosiy hayotida ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar; milliy ozchiliklarning qonun bilan kafolatlangan madaniy o‘ziga xosligi va tillarini saqlash va rivojlantirish; ma’lum bir jamiyatda namoyish etilgan barcha madaniyatlar uchun an’analarga rioya qilish uchun haqiqiy imkoniyat; bu boshqa konfessiyalar vakillarining huquqlari va imkoniyatlarini buzmasa, din erkinligi; umumiy muammolarni hal qilishda hamkorlik va birdamlik; millatlararo va millatlararo munosabatlar sohasida va jinslar o‘rtasidagi munosabatlarda salbiy stereotiplarni rad etish [8].

Taqdim etilgan mezonlar zamonaviy tarixda bag‘rikenglikning eng to‘liq timsoli sifatida qabul qilingan liberal fuqarolik jamiyati modeliga mos keladi. Jamiyatning ushbu modelida xolis davlat har bir fuqaroning rivojlanish va o‘z ishonchini ifoda etish huquqini kafolatlovchi asosiy sub’ektga aylanadi.

Bag‘rikenglikning asosiy funksiyalari: insonparvarlik - sub’ektning qadriyat yo‘nalishlari va manfaatlarini shakllantirishga qaratilgan; identifikatsiya qilish - o‘zini har qanday guruhga qo‘shilish, o‘z pozitsiyasini guruhdagilar bilan bog‘lash usuli sifatida ishlaydi, mulohaza yuritish qobiliyatini, o‘zaro aloqalarning axborot maydonini kengaytirish istagini hosil qiladi; ijtimoiy moslashuvchan - bu sub’ektning atrof-muhit bilan aloqasini uyg‘unlashtiradi, sub’ektiv potensialingizni real baholashga, o‘zingizni rivojlantirish uchun asos yaratishga imkon beradi [3].

Bundan tashqari, bag‘rikenglikning quyidagi tarkibiy qismlari topilgan: kognitiv-qiymat - shaxsni shakllantirishga ko‘maklashish vazifasini bajaradi; muhim tizim, qadriyat yo‘nalishlari, dunyoni idrok etish va munosabat sifatini tavsiflaydi; integral - guruhning ham, shaxsning ham ahamiyati va ichki qiymatini tan olishni ta’minlaydi; motivatsion-ehtiyojga asoslangan - ijtimoiy moslashuv maqsadida “bag‘rikenglik” axloqiy mezonini shakllantirishdan iborat.

“Tolerantlik” - bag‘rikenglik hissi va boshqalarning fikrlariga hurmat bilan qarash, bu sizning o‘zingizning fikringizga to‘g‘ri kelmaydi. Bardoshlik har kimga o‘z qarashlarini erkin ifoda etish huquqini va amaliy hayotda odamlarning haqiqiy tengligini beradi, bu inson o‘z e’tiqodidan voz kechmasdan, shu bilan birga boshqa odamlarning fikrlariga yaxshi munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘ladi [5].

Demak, tolerantlik juda keng falsafiy tushuncha bo‘lib, o‘zida toqatli bo‘lish, bag‘rikenglikni namoyish qilish, turli g‘oya, qarash va e’tiqodni teng yashovchanligini e’tirof etish va ularga samimiy munosabatda bo‘lish tushuniladi.

Tolerantlik - urf-odatlar, qarashlar, e’tiqodlarga nisbatan sabr-toqatlilik, chidamlilik, boadablik, andishalilikni, turli ijtimoiy va e’tiqodiy tafovutlarga ega insonlar va millatlarning olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi, do‘stona munosabatni va muhitni anglatadi [6].

Bag‘rikenglik har qanday vaziyatda odamga o‘z irodasiga qarshi chiqmaslik, suhbatdoshni kamsitmaslik va shaxsiy erkinlik prinsipini saqlab qolish imkonini beradi. Inson o‘zini qilmishidan xabardor bo‘lganda o‘zini bag‘rikeng deb biladi.

XULOSA

Tolerantlik (bag‘rikenglik) shaxsning individualligi barqarorligini va jamiyatdagi shaxsning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Bag‘rikenglik toqat qilmaslikdan farqli o‘laroq, ko‘p millatli dunyoda madaniyatlararo o‘zaro ta’sir o‘tkazish uchun shart bo‘lib xizmat qiladi. Uning shakllanishi o‘z xalqiga, uning urf-odatlari, qadriyatlari va yutuqlariga hurmat tuyg‘usini tarbiyalash, dunyoning butun etnik va madaniy xilma-xilligini anglash va qabul qilishni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz./ Sh.M. Mirziyoyev.- Toshkent: O‘zbekiston, 2016.- 56 b.

2. Петровский А.В. Психология и время. СПб.: Питер, 2007: 448 (на русском языке).

3. Ҳусниддинов З. Ўзбекистонда диний бағрикенглик (монография). - Тошкент ислом университети, 2006

4. Djurakulova A.X. O‘quvchilarning qobiliyatini shakllantirishda nostandart masalalar ahamiyati//O‘zbekiston Respublikasi Fanlarakademiyasi. – Toshkent. №1. 2011.–Б.139–140.

5. Хажиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараèни. –Тошкент: ABU-MATBUOT KONSALT. 2008

6. “Concept for the development of higher education until 2030 of the Republic of Uzbekistan” dated October 8, 2019.

7. Akbaralievich, T. A. (2022). Planning of initial training in educational institutions before convocation. Confrencea, 7(7), 86–88. Retrieved from https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/328

8. A’zamov Inom Salimjonovich. (2022). Improvement Of the Development of Tolerance Skills in Future Teachers (Example of Training a Military Course of Work). Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 147–150. Retrieved from https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/458)

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
HARBIY TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI Sotvoldiyev Abdulhoshim Yuldashovich	**173**
HARBIY TA’LIM FAKULTETI TALABALARIDA TOLERANTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI Qarshiev Azamat Raxmonovich	**177**
INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI VA AHAMIYATI Kenjayev Anvar Sattorovich., Kobilov Nozimjon Mingboyevich	**183**
TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM TALABALARINI O‘QUV-BILUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH Kobilov Nozimjon Mingboyevich., Kenjayev Anvar Sattorovich	**189**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**194**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVIY MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**198**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**204**

MUNDARIJA

PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT "PEACE" IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**209**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O'ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**215**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**224**
DIDAKTIK O'YINLARNING ONA TILI TA'LIMIDAGI O'RNI Kamolova Nilufar Saxibovna	**228**
SAVOD O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH G'iyosova O'g'iloy Sultonovna	**232**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA